

HARBIY NASHRLARNING QIZIL ARMIYAGA MAHALLIY AHOLINI JALB QILISHDAGI G'OYAVIY-MAFKURAVIY AHAMIYATI

Muxamadiyeva Laziza Nizomovna

Navoiy Davlat Pedagogika instituti

"Tarix" kafedrası tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13268362>

XX asrning 20-yillarida Turkiston mintaqasida bolsheviklar tomonidan tatbiq etilgan mahalliyashtirish siyosati bu – davlat idoralariga mahalliy millat vakillarini jalb qilish hamda ish yuritishni rus tili bilan parallel ravishda tub aholi tillarida olib borishni joriy qilinishi edi.

Sovet hokimiyati o'rnatilgan dastlabki yillarda milliy respublikalardagi boshqaruv tizimiga yerli kadrlarning jalb etilmaganligi va mahalliy tillarda ish yuritilmaganligi sababli qator muammolar yuzaga kelgan. Mazkur muammolarning oldini olish maqsadida bolsheviklar tomonidan davlat idoralarini mahalliy aholiga yaqinlashtirish rejasi hisoblangan "mahalliyashtirish" siyosati hayotga tatbiq etilgan. Bu davrda kommunistik mafkuraga xizmat qiladigan mahalliy kadrlarga ehtiyoj tug'ilganligi sababli tub aholidan kommunistlar tayyorlash va ularga o'z ona tilida ta'lim olishi hamda ish yuritishiga ruxsat berildi. Davlat idoralarini mahalliyashtirishning nazariy asoslari ilk marotaba RKP (b)ning 1921-yil martida bo'lgan X syezdida ilgari surilib, unda sovet qurilishiga mahalliy kadrlarni tortish, boshqaruv organlarida milliy vakilliklarni kengaytirish, milliy kamsitishning ekstremistik shakllariga qarshi kurashish haqida ko'rsatmalar berilgan¹.

1923-yil iyun oyida bo'lib o'tgan RKP (b)ning XII syezdida ham mahalliy millat vakillaridan "milliy kommunistlar" tayyorlash, to'garaklar tashkil etish, partiyaning tarbiyaviy ishlarini kuchaytirish, har bir xalqning ona tilida adabiyotlar chop ettirish va ish yuritishni mahalliy tillarda olib borishga qaror qilingan. Mazkur syezdda RSFSR Milliy ishlar xalq komissari I.V.Stalin o'zining "Partiya va davlat qurilishida milliy momentlar" mavzusidagi tezisida davlat idoralarini mahalliyashtirish masalasiga alohida to'xtalib o'tgan. Turkiston o'lkasida yerli aholini sovet idoralariga keng jalb qilish ishlariga Turkkommissiya va Turkiston milliy ishlar bo'yicha xalq komissarligi mas'ul bo'lgan. 1918-yili tashkil topgan Turkiston milliy ishlar bo'yicha xalq komissarligiga S.Ashurxo'jayev tayinlangan. Ayni paytda uning 1918-yil 31-iyuldagi buyrug'iga binoan, BMIQ ning 1918-yil 17-iyulda yuborgan radiogrammasi asosida, 1918-yilning kuziga kelganda Turkistonning 5 ta viloyat va 27 ta uyezdida o'lka milliy ishlar XK ning milliy bo'limlari tashkil topgan. Joylarda milliy bo'limlarning aksariyatini o'sha nomdagi millat vakili boshqargan².

Tajribali xodimlar yetishmagani va shuningdek, Markaz bilan muntazam aloqalar yo'qligi sababli Turkiston Milliy ishlar XKning tashkiliy tuzilmasi 1918-yil noyabrgacha davom etgan. Shu sababdan ham Milliy ishlar komissarligi Nizomining 1919-yilgi variantida komissarlik qoshida nashriyot, targ'ibot-tashviqotchilik, statistik, vaqf bo'limlaridan tashqari, turli millatlarni o'z ichiga olgan: o'zbek, tojik, turkman, qirg'iz, tatar, ukrain, yahudiy, arman va boshqa seksiya (bo'lim)lar tashkil topdi. Agar komissarlik qoshida 1918-1919 yillarda barcha millatlar seksiya-bo'lim deb yuritilgan bo'lsa, 1921-1922 yillariga kelganda, faqat ularning 3 tasiga: o'zbek, qirg'iz, turkmanlar bo'limi, qolgan millatlarniki esa umumlashgan

¹ Рашидов О. Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг миллий сиёсатида давлат идораларининг маҳаллийлаштирилиши (1918–1933 йй.) – Б. 11.

² O'z MA, R-36-fond, 1-ro'yxat, 15-ish, 39-varaq.

holda Milliy ozchilik bo'limi nomi bilan yuritilgan. Milliy ozchilik bo'limida quyidagi seksiyalar bo'lgan: ular tojik, tatar, eron ozarbayjon, dungan, taranchi, latish, polyak-litov, ukrain, arman, koreys, yahudiy, nemis kabi millat nomlari bilan yuritilgan³. Yuqorida qayd etilgan seksiyalar doimiylik xususiyatiga ega bo'lmay, ular qayta tuzilishi, qo'shilishi, yangi nom olishi va hatto shuni taqozo etsa, butunlay bekor ham qilingan. Komissarlik o'z tarkibidagi bo'lim va seksiyalar faoliyatini muvofiqlashtirib turishi, millatlar rivojlanish bosqichining turli darajalariga e'tibor qaratib borishi kerak edi. Ammo komissarlik Nizomi davr talabi: o'lkada kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, harbiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlarda millatlar haq-huquqi, manfaatiga javob bermasligi aniq bo'lib qoldi.

“Mahalliyashtirish” harakatlari Qizil Armiyaning Turkistonda joylashgan qismlarida ham faol amalga oshirila boshlandi. Bu jarayonga Turkkomissiya, Turkfront va mahalliy rahbarlar mas'ul etib belgilandi.

Turkistondagi bolshevistik davlat apparatida mahalliyashtirish ishini samarali tashkil etish borasida qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. 1923-yilning 5-yanvarida Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Komitetining 3-raqamli va 29-avgustdagi 130-raqamli hamda shu yilning 15-avgustida Turkiston XKSning qabul qilgan 124-sonli qarorlari shular jumlasidandir. Turkiston ASSRda ish yuritishni mahalliy tillarga o'tkazishni boshlash va boshqaruvda mahalliy kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadida 1923-yilning 15-avgustida “Markaziy mahalliyashtirish komissiyasi” deb nomlangan maxsus komissiya ta'sis etilgan⁴. Ushbu komissiya vazifa va vakolatlariga ish yuritishni mahalliy tillarda olib borishni nazorat qilish, boshqaruvga yerlik aholini jalb qilish, ularning manfaatlarini himoya qilish, huquqiy-me'yoriy hujjatlar tizimini ishlab chiqish belgilangan. Biroq respublikada mahalliyashtirish ishlarining olib borilishi yevropa millatiga mansub xodimlar tomonidan yaxshi qabul qilinmagan.

1923-yil 29-avgustda qabul qilingan Turkiston ASSR MIQning 130-qarori 14 ta moddadan iborat bo'lib, unda barcha dekret va qarorlar albatta rus, o'zbek, turkman hamda qirg'iz tillarida nashr etilishi belgilab qo'yildi⁵.

Qizil Armiyaga Turkiston xalqlarini jalb qilish ishlari bo'yicha keng miqyosdagi targ'ibot-tashviqot kompaniyasi 1920-yil yanvarda bo'lib o'tgan Kommunistik partiyaning V o'lka konferensiyasidan keyin boshlandi. Unda so'zga chiqqan bolshevik V.Kuybeshiv tub joy aholi orasidan ko'ngililarni armiya saflariga jalb qilish uchun zudlik bilan keng targ'ibot ishlarini boshlash kerakligini ta'kidlab o'tdi⁶. Siyosiy boshqarmaning 1920-yil fevralda chiqargan shu mazmundagi xati joylardagi harbiy bo'linmalarga yetkazilgan. Harbiy bo'linmalar shu asosda tashviqot ishlarini boshlagan. Bundan tashqari Kraykomning 1920-yil 5-mayda bo'lib o'tgan yig'ilishi qarori ham armiya qismlarini mahalliyashtirish ishlarida muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilgan.

Qizil Armiyaning Turkiston hududidagi qismlariga tub aholini jalb qilish vazifasida shubhasiz, harbiy matbuot katta o'ringa ega edi. Shundan kelib chiqib harbiy nashrlar sahifalarida Qizil Armiya ko'klarga ko'tarilgan maqolalar joylarda keng muhokama qilindi.

³ Наша газета. 8 февраля, 1919 г.

⁴ Рашидов О.Р. Ўзбекистонда совет бошқаруви структурасидаги кадрларни маҳаллийлаштириш сиёсатининг айрим жиҳатлари // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 2017. – №1. – Б.27.

⁵ О'з МА, R-17-fond, 1-ro'yxat, 367-ish, 71-varaq.

⁶ Известия ТуркЦИКА. – № 19. 28 января, 1920 г.

Albatta, harbiy nashrlar tomonidan olib borilgan targ'ibot-tashviqot ishlari ma'lum darajada o'zining samarasini ham bergan. Jumladan, fevral oyida 95 kishi armiyada xizmat qilish istagini bildirgan⁷. Biroq ular katta ehtimol bilan qizil askarlar uchun belgilangan imtiyozlardan foydalanish maqsadida sovet armiyasi safiga qo'shilishgan.

Harbiy nashrlar mahalliy yoshlarni instruktorlik kurslariga jalb qilishga harakat qilgan. Bunday ishlar ko'proq Farg'ona vodiysida xususan, Qo'qon, Andijon, Marg'ilon shaharlarida o'tkazildi.

Targ'ibot-tashviqot ishlarida harbiy nashrlar siyosiy xodimlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritgan. Ular Sharq xalqlarini ingliz intervensiyasidan ozod qilish uchun mahalliy aholini hamkorlikda ish ko'rishga chaqirgan. Bunday chaqiriq va davatlar ham mahalliy aholini sovet armiyasi saflariga jalb qilish uchun bir yo'l edi.

Harbiy nashrlarda qizil askarlarning burchi va vazifasini eslatuvchi, ularning "proletariat diktaturasi"ga sidqidildan xizmat qilishi kerakligi, harbiy ishga bor diqqat-e'tiborini qaratish lozimligini uqtirgan materiallar ham bosilgan. Bu mazmundagi maqolalarning mahalliy aholi orasida tashviq qilinishi, ularda "proletariat diktaturasi" bo'yicha tushunchalarini shakllantirishi lozim edi.

Qizil Armiyaga mahalliy aholini jalb qilish maqsadida harbiy matbuot turli usul va yo'llardan foydalangan. Ulardan biri joylarda Kommunistik partiya vakillari ishtirokida yig'ilish va mitinglar o'tkazish edi. Mitinglarda partiya yetakchilari otashin nutqlar so'zlab, "hozirgi sharoitda qaysi millat ekanligidan qat'iy nazar umumiy maqsad yo'lida birlashish kerakligi"ni takrorlashgan. Shu mazmundagi material va maqolalarni ko'pgina harbiy nashrlarda uchratish mumkin. "Бой за коммунизм" (23-son), "Правда" (73-son), "Пролетарская мысль" (46-son) gazetalari shular jumlasidan.

Bundan kelib chiqadiki, Turkistondagi barcha harbiy nashrlar mahalliy aholini sovet armiyasiga jalb qilish uchun yuqoridagi yo'ldan foydalanishgan. Bolsheviklar shu yo'l bilan Turkistonda o'z hokimiyatini qo'llab-quvvatlaydiganlar sonini ham oshirishga harakat qilgan.

Bolsheviklarning Turkistonda Qizil Armiyaga mahalliy aholini jalb qilishdagi targ'ibot kompaniyasiga harbiy gazetalardan tashqari jurnallar ham jalb qilindi. Xususan, "Коммунистической мысли"ning birinchi sonidayoq bosilgan "Qizil Armiyaning Turkistondagi vazifalari" nomli maqolasida "o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar va turkmanlar barchangiz qizil bayroq ostidagi mehnatkashlar qo'shiniga birlashing. Buning barchasi sizning ozodligingiz va farovonligingiz uchun⁸" – degan da'vat ohangidagi chaqiriq o'rin olgan. Keyingi sahifada Boris Lavrenev ismli shoirning "Ikki yil" nomli she'ri "Mening sevimli Qizil Armiyam" nomli sarlavha ostida bosilgan.

Bulardan ko'rinadi 1920-yillarda bolsheviklar o'z armiyasi saflarini mahalliy aholi hisobiga to'ldirishga zo'r berib harakat qilgan.

Harbiy nashrlar mahalliy aholini jalb qilish maqsadida Qizil Armiyaning ichki hayotini, undagi imtiyozlarni ko'proq ko'rsatishga harakat qildi. Bu holatni "Коммунистической мысли"ning 2-3 sonlarida nashr qilingan maqolalarda ham ko'rish mumkin. Ularda asosan kommunistcha tarbiyaga asosiy urg'u beriladi. Bu haqda bir maqolada shunday deyiladi: "Tarbiyaviy harakterdagi bilimlar Qizil Armiyada juda yaxshi yo'lga qo'yilgan". Bu jihat ham qaysidir ma'noda o'lka aholisini sovet armiyasiga jalb qilishga xizmat qilgan.

⁷ Набат революции. – № 25. 15 февраля, 1920 г.

⁸ Коммунистической мысли. – № 1. 1920 г.

Qizil Armiyaning dunyodagi eng kuchli va intizomli armiya ekanligi, armiyaning turli frontlarda qozongan g'alabalari, Turkomissiya faoliyati, sovetlarning milliy siyosati barcha gazeta va jurnallarda tinimsiz yoritib borilib, doimiy ravishda harbiy qismlar va joylarga yetkazilib turildi.

Turkfront harbiy-inqilobiy kengashining 1920-yil 7-maydagi qarori harakatdagi armiya saflariga mahalliy millat vakillarini kengroq jalb qilishni ko'zda tutar edi. Qaror Turkiston mahalliy aholisi hamda yaqinda kelgan yevropalik aholi vakillarini hozirgi sharoitdan kelib chiqib, iqtisodiy va harbiy tartibni ta'minlash maqsadida Qizil Armiya saflariga jalb qilishni ko'zda tutar edi. Shundan kelib chiqib, hududlarda mobilizatsiya punktlari tashkil qilindi.

1920-yil iyun oyida interventchilar havfining kuchayishi bolsheviklarga o'z armiyasini mahalliy aholi hisobiga to'ldirishni yanada tezlashtirishga majbur qildi.

Ko'rinib turibdiki, XX asrning 20-yillarida Turkiston o'lkasida milliy istiqloqlilik harakatlari kuchaygandan so'ng bolsheviklar sovet harbiy nashrlaridagi targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada jadallashtirgan. Bu davrda mahalliy aholini Qizil qo'shinlar safiga chorlash harbiy nashrlarning asosiy mavzusi edi.

Bolshevistik harbiy nashrlar mahalliy aholini o'z tarafiga og'dirish, o'lkada davom etayotgan milliy-ozodlik harakatlarini sustlashtirish maqsadida sovetlar tomonidan uyushtirilgan miting va yig'ilishlarda qatnashgan mahalliy aholi sonini orttirib ko'rsatadi. Bunga bir qancha misollarni keltirish mumkin. Jumladan, "Пролетарская мысл" gazetasini olaylik. Uning 1920-yildagi 105-sonida sovetlar tomonidan Qo'qonning eski shahar mahallasida o'tkazilgan yig'ilishda minglab musulmonlar qatnashganligi, 108-sonda Konjar qishlog'idagi mitingda ming nafar, 112-sonda 1920-yil 18-iyulda Toshkentning eski shahar qismidagi mitingda 30 ming nafar, 118-sonda eski Marg'ilondagi mitingda 2 ming nafar mahalliy aholi ishtirok etganligi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Harbiy nashrlar yetakchiligida olib borilgan mahalliy aholini Qizil Armiya saflariga jalb qilish borasida targ'ibot-tashviqot ishlari o'zining kutilgan samarasini bermagandan so'ng bolsheviklar bu ishni amalga oshirishda ancha "sinalgan" yo'llardan foydalanishdi ya'ni majburlov choralarini qo'llay boshlagan. Buni Farg'ona oblrevkomining 1920-yil avgustdagi axboroti ham tasdiqlaydi. Axborotda mobilizatsiya to'g'risida dekret "bosmachilar"ning harakatlari natijasida mahalliy aholini Qizil Armiya saflariga jalb qilishda deyarli samara bermayotganligi, shu boisdan jarayonni to'la amalga oshirishda boshqa choralar ko'rish kerakligi aytib o'tiladi⁹.

Vaziyatdan kelib chiqib, bolsheviklar majburiy ravishda mahalliy aholini o'z armiyasi saflariga jalb qila boshlaydi. Shunday bo'lsa-da aholining katta qismi Sovet armiyasida xizmat qilmaslik uchun bor harakatlarini sarflaydi. Mahalliy aholining bunday xatti-harakatlarini oldini olish maqsadida M.V.Frunzening maxsus buyrug'i chiqariladi. Unga ko'ra armiyaga chaqiruvlardan bo'yin tovlagan har bir shaxs qattiq jazolanishi belgilab qo'yiladi. O'rnida aytish kerak, bu buyruq harbiy nashrlar orqali keng targ'ib qilinadi. Bundan ko'zlangan maqsad esa mahalliy aholi orasida qo'rquv va vahima uyg'otib, Qizil Armiyaga ko'proq odamlarni jalb qilish edi. Harbiy nashrlarning bunday targ'iboti qisman samara ham berganligini aytib o'tish kerak. Xususan, Farg'ona viloyatidan 1920-yil sentyabrga qadar 9350


⁹ O'z MA, R-17-fond, 1-ro'yxat, 156-ish, 335-varaq.

nafar aholi armiyaga jalb qilinishi belgilangan bo'lsa, amalda ularning soni 9642 nafarni tashkil etgan¹⁰.

Umuman olganda, mahalliy aholini Qizil armiya saflariga jalb qilish ishlaridagi targ'ibot-tashviqot masalalarida harbiy nashrlar alohida o'rin tutdi. Biroq bolsheviklarning harbiy nashrlar vositasida mahalliy aholini o'z armiyasi saflariga jalb qilish ishlari kutilgan samarani bermadi.

References:

1. O'z MA, R-17-fond, 1-ro'yxat, 156-ish, 335-varaq.
2. O'z MA, R-36-fond, 1-ro'yxat, 15-ish, 39-varaq
3. O'z MA, R-17-fond, 1-ro'yxat, 367-ish, 71-varaq.
4. Наша газета. 8 февраля, 1919 г.
5. Известия ТуркЦИКА. – № 19. 28 января, 1920 г.
6. Набат революции. – № 25. 15 февраля, 1920 г.
7. Коммунистической мысли. – № 1. 1920 г.
8. Амонжолов К. Национальные формирования Красной Армии в Средней Азии и Казахстане (1918-1920 гг.): Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Алма-Ата, 1973. – С. 14.
9. Рашидов О. Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг миллий сиёсатида давлат идораларининг маҳаллийлаштирилиши (1918–1933 йй.)



INNOVATIVE
ACADEMY

¹⁰ Амонжолов К. Национальные формирования Красной Армии в Средней Азии и Казахстане (1918-1920 гг.): Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Алма-Ата, 1973. – С. 14.